



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-fevral

68-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ma‘lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 29-yanvardagi 49-son qarori ijrosi haqida”gi 64-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish hamda sifatli va xolisona baholash, ayniqsa, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar bandligini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ma‘lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 29-yanvardagi 49-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 64-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 64-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 49-son qarori bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan davlat buyurtmasini Maxsus elektron platforma (keyingi o‘rinlarda — Platforma) orqali shakllantirish hamda Platformani Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

belgilanishicha, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab:

oliy ma‘lumotli kadrlarga davlat buyurtmasi Platformada jamlangan ma‘lumotlar va mehnat bozori talabini tahlil qilish asosida aniqlanadi;

kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj 4 yillik davrga ishlab chiqilib, har yili mehnat bozorining o‘zgarish tendensiyalari, hududlarda ijtimoiy soha muassasalari va iqtisodiyot tarmoqlarini kadrlar bilan ta‘minlashni inobatga olgan holda, Platformaga tegishli tuzatishlar kiritib borilishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Oliy ma‘lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

davlat buyurtmasini shakllantirishda ma‘lumotlarni jamlash, qayta ishlash va buyurtmani yuqori turuvchi organlarga taqdim etishi;

ish beruvchilarning oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash tartibi; iqtisodiyot tarmoqlarini mutanosib rivojlantirib borish maqsadida davlat

buyurtmasini shakllantirishda ustuvorlik beriladigan yo‘nalishlarni aniqlashi;

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2025-yil 1-aprelga qadar o‘zlariga tegishli bo‘lgan elektron ma‘lumotlar bazalari “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsion platformasi orqali Platformaga integratsiya qilinishini ta‘minlashi;

bunda:

integratsiya qilinadigan ma'lumotlar bazalari ro'yxatini Iqtisodiyot va moliya vazirligi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari bilan kelishgan holda shakllantiradi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Axborot texnologiyalari markazi" davlat unitar korxonasi Platformani ishga tushirish bilan bog'liq texnik jarayonlarni amalga oshirish, Platforma ishtirokchilari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsion platformasi orqali amalga oshirish va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha mas'ul hisoblanishi;

belgilanishicha, oliy ma'lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirishda Platformaga quyidagi:

a) Soliq qo'mitasi tomonidan:

iqtisodiyot tarmoqlarida rasman band bo'lgan aholi soni (iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar kesimida);

davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining o'qishni tamomlagandan so'ng rasman bandligi to'g'risidagi ma'lumotlarni (faoliyat turlari kesimida);

b) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan mehnat resurslari balansi, mehnat bozorida mavjud bo'sh ish o'rinlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bandlik darajasi haqida;

d) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish (HEMIS)" axborot tizimida mavjud bitiruvchilar va oliy ta'lim tashkilotlari to'g'risida;

e) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish hisobidan kelgusi yillarda yuzaga kelishi kutilayotgan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj haqida;

f) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan hududlarda amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari hamda hududning rivojlanish istiqbollarini inobatga olgan holda, kelgusi yillarda yuzaga kelishi kutilayotgan kadrlarga bo'lgan talab to'g'risida;

g) respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari tomonidan o'z tizimlarida kelgusi yillarda yuzaga kelishi kutilayotgan kadrlarga bo'lgan talab to'g'risida ma'lumotlar kiritib borilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov